



TOSHPO'LAT AHMADNING "QUTLUG' OSTONA" TO'PLAMIDAGI AYRIM
ANTONIMLAR XUSUSIDA⁵³

Azimova Aziza O'ktamovna,

*Buxoro davlat universiteti, O'zbek tilshunosligi va jurnalistika
kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi.*

+998883054005

Annotatsiya. *Badiiy asar tilida poetik individuallikni ta'minlash uchun ijodkorlar barcha til birliklaridan umumli foydalanishadi. Xususan, antonimlar shoirlar maqsadini to'liq ochib berishda asosiy vosita sanaladi. Ushbu maqolada shoir Toshpo'lat Ahmadning so'z qo'llash mahorati ijodkorning antonim so'zlardan qay tarzda foydalanganligi asosida ochib beriladi. Har bir nazariy fikr shoirning "Qutlug' ostona" to'plamidan olingan ayrim antonimlar bilan dalillangan.*

Tayanch so'zlar: *antonim, kontekstual antonim, leksik antonimiya, frazeologik antonimiya, leksik-frazeologik antonimiya.*

Tilda antonim so'zlarning mavjudligi badiiy nutqning ifodaliligi, ekspressivligi, ta'sirchanligini ta'minlashda qulay vositalardan biridir. Antonim atamasi yunoncha tildan olingan bo'lib, "qarama-qarshi nom", "zid nom" degan ma'noni bildiradi. Antonimiya so'z juftligida muayyan leksik ma'noning o'zaro qarama-qarshi bo'lishidir. Ya'ni o'zaro qarama-qarshi ma'noga ega so'z juftligi antonim deyiladi [3,178]. Hamma narsa juftlik prinsipiga asoslangan ekan, antonimlar tilning leksik yuzasidagi ana shunday juftlikning oddiy namunasidir. Ijodkorlar voqelikni, narsa va hodisalarning belgi-xususiyatlaridagi farqli tomonni ko'rsatishda antonim so'zlardan umumli foydalanishadi. Shoir Toshpo'lat Ahmad ijodida ayrim antonimlarni kuzatamiz:

ochiq ~ berk

Garchi yo'llar ochiq, yo'llar berk edi, Garchi qo'llar ochiq, qo'llar berk edi/ Va lekin xayolda orzu – Erk edi, Shitob so'rab keldik, Sizdan, bobojon. ("Yassaviy qabri qoshida")

Baxil ~ saxiy

Birin-birin baxil ketar, saxiy ketar/ Xayr-u saxovat ketmasin. ("Ketmasin")

Quruq ~ ho'l

Rasulilloh demishlarkim: fisq-fasodning/ Qurug'i-yu ho'li yog'sa, sabr qilg'il. ("Sabr qilg'il")

Tosh ~ muloyim

Qanoatda qoyim bo'l, ibodatga soyim bo'l/ Tosh emas, muloyim bo'l, bir kun javobi bordur. ("Bir kun javobi bordur")

⁵³ Tahlilga tortilgan misollar manbasi: T. Ahmad, Qutlug' ostona (She'rlar, g'azallar, to'rtliklar va ssenariy). – T.: "Yangi asr avlodi", 2006.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Antonim so‘zlar asosan sifat va ravish so‘z turkumlarida uchraydi. Yuqoridagi namunalarda bunga guvoh bo‘ldik. Toshpo‘lat Ahmad belgi ifodalamaydigan so‘zlarni ham bir-biriga qarshi qo‘yib, boshqa so‘z turkumlari doirasida ham antonimlik hosil qilgan.

Yer-ko‘k (“Bo‘lsin”), *do‘zax-jannat*, *o‘g‘rilik-to‘g‘rilik* (“Hadisi sharif – ko‘ngil javhari”), *tun-tong* (“Yassaviy qabri qoshida”), *savob-gunoh*, *javob-savol* (“Elning o‘tar ko‘prigi bo‘l...”), *nur-zulmat* (“Insof bergil”), *osmon-zamin* (“Sadolar”), *otlig‘-yayov* (“Marvarid qatralar”), *mehr-qahr* (“Ne deysiz?”), *baxillik-saxiylik* (“Assalom”)

Ijodkor faqat tilda mavjud bo‘lgan, tayyor antonimlardangina foydalanib qolmay, badiiy tasvir ehtiyojiga ko‘ra antonim bo‘lmagan so‘zlarni ham mahorat bilan qo‘llaydi.

Alvido ~ assalom

Senga shukronamiz, sengadir tamom, Axir sen begona emassan mutloq/ Alvido, tuproqqa aylangan otam. Assalom, otamga aylangan tuproq!.. (“Otam qabridagi yozuv”)

Toshpo‘lat Ahmad so‘zlarni shu darajada chertib tanlaganki, aslida, salbiy holat, ya‘ni kishining o‘limi, tuproqqa singib ketishi hayotbaxsh satrlarda, yorqin bo‘yoqlarda tasvirlangan. Shoir tanlagan alvido so‘zida umidsizlik ko‘rinsa, assalom so‘zida yashovchanlik yashirin. Demak, u otasi qabri qoshida yo‘qotgan kishisi bilan xayrlashayotib, yodi hamisha yodda bo‘lgan zot bilan dildan yaqinlikni tuyadi.

Xorij ~ yurt

Xorijda “hamshahrim” uchratsam bir kun, Dedi: “Ko‘r ekanman, chun holim zabun, Essiz, yurtim!” deya yig‘ladi xun-xun/ Axir O‘zbekiston boshqachadir, Bu guliston boshqacha. (“O‘zbekiston boshqacha”)

Chetga chiqib, tashqi dunyoni ko‘rgan inson, albatta, uni tug‘ilib o‘sgan joyi bilan taqqoslaydi. Parchada boshqa yerning non-u tuzini tatib ko‘rgan musofir shoirga o‘z yurtining qadrini so‘zlamoqda. Ayni taqqoslash uchun ijodkor xorij va yurt so‘zlarini zid keltirgan.

Dardmand ~ dardi yo‘q

Bolari bol emsa, bog‘ yig‘larmidi, Cho‘qqini qor bossa, tog‘ yig‘larmidi/ Dardmandga dardi yo‘q dil bog‘larmidi, Dunyoda sir ko‘pdir, sinoat ko‘pdir (“Dunyoda sir ko‘pdir”).

Kasallanib turuvchi, kasallik asoratlari bo‘lgan kishi dardi yo‘q bilan zidlantirilmogda.

To‘rt kunlik ~mangu

Amaldorlik mansabini etma havas, To‘rt kunlikdir davr-u davron, mangu emas/ Soxta obro‘, shon-u shavkat – bari abas, Quv amaldor xalqqa qo‘rg‘on solg‘oni yo‘q (“Yuragingni yolqin etgin”).

O‘tkinchi so‘zi bilan zidlik hosil qiluvchi mangu so‘ziga shoir to‘rt kunlik deya zidlashni ma‘qul ko‘radi. Ko‘rib turganimizdek, bular matniy antonimiyani hosil qilgan. Leksik ma‘no bilan leksik qo‘llash orasidagi antonimik munosabat kontekstual antonimiya deb nomlanishi mumkin. Bunday antonimiya har gal nutqning o‘zida voqe bo‘ladi, nutqdan tashqarida yo‘qqa chiqadi, ko‘pincha individual nutqqa xos bo‘ladi [5,125]. Bu kabi antonimlar shoir tasvirlayotgan hayotning, inson his-tuyg‘ulari, ichki kechinmalarining jo‘shqin, murakkab, ziddiyatlarga to‘la ko‘rinishlarini haqqoniy aks ettirishga xizmat qiladi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Xulosa qilib aytganda, shoir antonimlardan o'z maqsadini ochib berishda, his-tuyg'ularini ifodalashda mohirona foydalanadi, tilga, so'zga o'zgacha munosabatda bo'ladi. Toshpo'lat Ahmad ularni o'z o'rnida va o'rinli qo'llagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Asadov T., Azimova A. Toshpo'lat Ahmad she'riyati lingvostilistikasi. – Buxoro: Durдона, 2023. – 120 b.
2. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – T.: "Talqin", 2005. – 272b.
3. Миртожиев М. Хозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент, 2004.
4. Қодиров П. Тил ва эл. – Тошкент: Фафур Фулом, 2005.
- 5.Турсунов У. Мухторов А. Раҳматуллаев Ш. Хозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992.
- 6.Ҳусупова Д., Ҳулдасева Д. Нalima Худойбердијева she'riyati lingvopoetikasi. Monografiya. T., 2020.
7. Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопозтик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2006.